

O‘ZBEKISTON HUDUDIDA KUZATILADIGAN TABIIY OFATLAR VA ULARNING OQIBATLARI

Dadabaeva Naziraxon Abdurazakovna

Andijon viloyati Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi

Hayot faoliyati xavfsizligi o‘quv markazi o‘qituvchisi

Телефон: 998 93 444-13-66

Xamraboyev Ilxomjon Sotvoldievich

Andijon viloyati Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi

Hayot faoliyati xavfsizligi o‘quv markazi katta o‘qituvchisi

Tel: 97 994-04-43

Annotatsiya: *Hozirgi kunning eng muhim vazifalaridan biri favqulodda vaziyatlar, talofatlar, avariylar, falokatlar va turli-tuman ofatlarning hosil bo‘lishi va rivojlanishini bashoratlash, oldindan davlat organlari va aholini yaqinlashib kelayotgan ofatdan ogoh etishdan iboratdir.*

Maqolada O‘zbekiston hududida yuz berishi mumkin bo‘lgan favqulodda vaziyatlar hamda ularni oldini olish chora tadbirlari haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar *Tabiiy ofat, yer silkinishi. Epitsentr, gipotsentr. Suv toshqini. Kuchli shamol. Yer silkinishiga chidamli inshootlar. Yer surilish belgilari. Sellar. O‘quv markazlar.*

Tabiiy ofat - bu tabiatda yuz beradigan favquloddagi o‘zgarish bo‘lib, u birdan, tezlikda insonlarning mo‘tadil yashash, ishlash sharoitlarining buzilishi, odamlarning o‘limi hamda qishloq xo‘jaligi hayvonlarining, moddiy boyliklarning yo‘q bo‘lib ketishi bilan tugaydigan hodisalardir.

Tabiiy ofatlarning turlari hilma-xil yer silkinishi, suv toshqini, kuchli shamol, yong‘in, qurg‘oqchilik, yer surilishi va boshqalar. Bu xildagi tabiiy ofatlar bir-biriga bog‘liq hamda bog‘liq bo‘lmagan holda alohida yuzaga kelishi mumkin. Ya‘ni bir tabiiy ofatning boshqa ofat oqibatida yuzaga kelishidir. Masalan, o‘rmonda yong‘inlarning kelib chiqishi, tog‘li joylardagi ishlab chiqarish portlashlari, platinalar qurishda yerning surilishiga, qorlarning ko‘chishi va boshqa ofatlarning kelib chiqishiga sabab bo‘ladi.

Hech narsaga bog‘liq bo‘lmagan tabiiy ofatlar juda katta miqyosda va turli vaqtlargacha bir necha soniya daqiqadan (yer surilishi, yer silkinishi, qor ko‘chishi) bir necha soatlargacha (kuchli qor va yomg‘ir yog‘ishi), hatto kun va oygacha (suv toshqini va yong‘in bo‘lishi) cho‘zilishi mumkin.

Tabiiy ofatlar hamma joylarda ham yuzaga kelavermaydi. Jumladan, yer silkinishi, yer surilishi ofatlari ko‘proq tog‘li hududlarda kuzatiladiki, buning oqibatida nafaqat insonlar, balki xalq xo‘jaligi tarmoqlari, hatto atrof-muhit qattiq shikastlanadi.

Yana kuchli yog‘ingarchilik, qor yog‘ishi natijasida suv toshqini kuzatiladiki, oqibatda, fuqarolarning yashash joylari, sanoat korxonolari, temir va magistral yo‘llar, gidrotexnik inshootlar izdan chiqadi.

Xuddi shunga o'xshash ta'sirlar yer surilishi, qor ko'chishi, qurg'oqchilik, kuchli shamollar ta'sirida ham kuzatilib, oxir-oqibatda insonlar katta-ham ma'naviy, ham moddiy zarar ko'radilar.

Tabiiy ofatning har qaysi shakllari o'zlarining fizik ma'nosiga, kelib chiqish sabablariga, o'zlarining tavsifiga, kuchiga va tashqi atrofga ta'sir ko'rsatish xususiyatlariga ega. Tabiiy ofatlarni o'z vaqtida bilib, uning tavsiflari va sabablari aniq o'rganilsa, bu ofatlarning oldini olish yoki ularning zarar keltirish xususiyatlari birmuncha kamaytirilgan bo'ladi.

Tabiiy ofatlarga qarshi kurash choralaridan biri bu xalqni o'z vaqtida voqif etish hisoblanadi. Bu esa tabiiy ofatdan keladigan zararlarni birmuncha kamaytirish imkoniyatini vujudga keltiradi.

Yer silkinishi va uning oqibatlari:

Yer silkinishi yuzaga kelish sabablariga ko'ra quyidagi guruhlarga bo'linadi:

Tektonik zilzilar, Vulqon zilzilar, Ag'darilish, o'pirilish zilzilar.

Texnogen (insonning muhandislik faoliyati bilan bog'liq) zilzilar.

Yer silkinish kuchiga qarab quyidagi holatlar kuzatiladi: Yer silkinishi 12 balli shkalada baxolanadi. Tashqi ko'rinishidan yer qimirlash quyidagicha izohlanadi:

1 ball - sezilarsiz, faqatgina seysmik asboblari qayd qiladi;

2 ball - juda kuchsiz, uy ichida o'tirgan ba'zi odamlar sezishi mumkin (deraza oynalari titraydi);

3 ball - kuchsiz, ko'pchilik odamlar sezmaydi, ochiq joyda tinch o'tirgan odam sezishi mumkin. Osilgan jismlar asta-sekin tebranadi;

4 ball - o'rtacha sezilarli. Ochiq joyda, bino ichida turgan odamlar sezadi. Uy devorlari qirsillaydi. Ro'zg'or anjomlari titraydi, osilgan jismlar tebranadi;

5 ball - ancha kuchli. Hamma sezadi, uyqudagi odam uyg'onadi, ba'zi odamlar hovliga yugurib chiqadi. Idishlardagi suyuqlik chayqalib to'kiladi, osilgan uy jihozlari qattiq tebranadi;

6 ball - kuchli. Hamma sezadi, uyqudagi odam uyg'onadi, ko'pchilik odamlar hovliga yugurib chiqadi. Uy hayvonlari betoqat bo'ladi. Ba'zi hollarda kitob javonidagi kitoblar, ro'zg'or buyumlari, javonlardagi idishlar ag'darilib tushadi;

7 ball - juda kuchli. Ko'pchilik odamlarni qo'rquv bosadi, ko'chaga yugurib chiqadi, avtomobil haydovchilari harakat vaqtida ham sezadi, uy devorlarida katta-katta yoriqlar paydo bo'ladi, hovuzlardagi suv chayqaladi va loyqalanadi.

8 ball - yemiruvchi. Xom g'ishtdan qurilgan imoratlar butunlay vayronaga aylanadi, ancha pishiq qilib qurilgan imoratlarda ham yoriqlar paydo bo'ladi, uy tepasidagi mo'rilar yiqiladi, ba'zi daraxtlar butun tanasi bilan yiqiladi, sinadi, tog'liq joylarda qulash, surilish hodisalari yuz beradi.

9 ball - vayron qiluvchi. Yer qimirlashiga bardosh beradigan qilib qurilgan imorat va inshootlar ham qattiq shikastlanadi. Oddiy imoratlar butunlay vayron bo'ladi, yer yuzasida yoriqlar paydo bo'ladi, yer osti suvlari sizib chiqishi mumkin.

10 ball - yakson qiluvchi. Hamma imoratlar yakson bo'ladi. Temir yo'l izlari to'lqinsimon shaklga kelib bir tomonga qarab egilib qoladi, yer osti kommunal

quvurlari uzilib ketadi, cho'qish hodisalari yuz beradi. Suv havzalari to'ldirilgan qirg'oqqa uriladi, qoyali yon bag'rlarda kata-katta surilish hodisalari sodir bo'ladi.

11 ball - fojiali. Hamma imoratlar deyarlik vayron bo'ladi, to'g'onlar yorilib ketadi, temir yo'llar butunlay ishdan chiqadi, yerning ustki qismida kata-katta yoriqlar paydo bo'ladi, yer ostidan balchiqlar ko'tarilib chiqadi, surilish, qulash hodisalari nihoyasiga yetadi.

12 ball - kuchli fojiali. Yerning ustki qismida kata o'zgarishlar yuz beradi. Hamma imoratlar butunlay vayron bo'ladi, daryolarning o'zani o'zgarib sharshalar paydo bo'ladi, tabiiy to'g'onlar vujudga keladi.

Inshootlar ko'radigan talafotlar quyidagichi tasniflanadi.

1 - darajali talafot. Bunda yengil shikastlanish yuz beradi.

2-darajali talafot. Og'ir bo'lmagan shikastlanish sodir etiladi, devorlarda katta bo'lmagan yoriqlar paydo bo'ladi.

3-darajali talafot. Inshootlarning og'ir shikastlanishi yuz beradi, devorlarda katta va chuqur yoriqlar paydo bo'ladi.

4-darajali talafot. Imorat va inshootlar ichki devorlarining to'liq buzilishi yuz beradi.

5-darajali talafot. Imorat va inshootlar to'liq buzilishi sodir bo'ladi.

Yer silkinish oqibatlarini tugatish chora-tadbirlari:

Yer silkinishining oqibatlarini tugatishda ishga yaroqli har bir kishi ishtirok etishi zarur va quyidagi ishlar birlamchi hisoblanadi.

Yer tagida, buzilgan va yonayotgan uyda qolgan odamlarni qutqarish.

Ishlab chiqarish, kommunal-energetika tizimlarida sodir bo'ladigan avariya va xavfning oldini olish va to'g'rilash (chunki bular inson hayotiga xavf soladi).

BUZILGAN UYLARNI, INSHOOTLARNI TIKLASH.

Talafot ko'rganlarga tibbiy yordam ko'rsatish shahobchalarini tayyorlash.

Yer silkinish o'chog'ida suv ta'minotini tiklash

Hozirgi kunda yerning koinotda va quyosh sistemasida tutgan o'rni, uning o'lchamlari, fizik va kimyoviy xossalari, tuzilishi, undagi turli jarayonlar to'g'risida geologiya, geofizika, geoximiya, astronomiya va yana bir qator fanlar yordamida aniq ma'lumotlar olishga muvaffaq bo'lingan.

Yer o'zining fizik xossalari, zichligi, solishtirma og'irligi, issiqligi, elektr o'tkazuvchanligi va boshqa xususiyatlariga qarab uchta yirik qatlamlarga bo'linadi - ular yer qobig'i, mantiya va yadro qatlamlaridan iborat.

ZILZILA SODIR BO'LGANDA AHOLINI MUHOFAZA QILISH USULLARI.

1. Yer silkinishi xavfi bo'lganda oldindan binodan chiqish yo'lini bilish kerak, chunki yer silkinishi yarim tunda xam sodir bo'lishi mumkin va chiqish yo'llari, eshiklar odamlar bilan gavgum bo'lsa, binodan chiqishni 1-qavat derazalari orqali amalga oshirish kerak.

2. Oldindan xonaning burchaklari-asosiy devor burchagi, eshikning ramkalari o'rni kabi xavfsiz joylarni aniqlab qo'yish lozim. Yer qimirlaganda uyning xavfli joylari- oyna bo'lgan ichki va tashqi o'rinlari, lift va zinopoya maydonchalari xisoblanadi.

3. Oila a'zolari va bolalarga xavfsiz joy tanlashni o'rgatish zarur.
4. Oila a'zolari va o'zingiz gaz, elektr va suvni o'chirish yo'llarini bilishingiz lozim.
5. Qariya, nogiron va bolalarning xavfsizligini ta'minlash yo'lini toping.
6. Shkaf, stellaj, etajerka va javonlarni uxlaydigan o'rinlarga, eshik va chiqish yo'llariga yiqilmaydigan xolatda qo'yish kerak.
7. Og'ir yuklarni – odam ustiga tushib ketishi mumkin bo'lgan narsalarni pastga va ishonchli joyga joylashtirish shart. Dam olish o'rinlari katta oynavandlardan, ustiga tushishi mumkin bo'lgan narsalardan uzoqroq bo'lishi shart.
8. Javonlarni dam olish o'rinlaridan yiroqroq joylashtiring.
9. Kiyimlar va buyumlar Bilan uyga kirish yo'lini yopib qo'ymang.
10. Tez yonuvchan yonilg'i bo'lgan idishlarni portlab yoki yonib ketmaydigan xavfsiz joyda saqlang.
11. Lat yeganda, umuman xar qanday xavf bo'lganda birinchi tibbiy yordam ko'rsating. Uyingizda dori-darmonlar, birinchi tibbiy yordam ko'rsatish qutichasi saqlang.
12. Yerto'la yoki garaj - saqlanish joylari xisoblanadi, shuning uchun ofat tugagunga qadar saqlanish uchun ushbu joylarda sharoit yaratilishi ko'zda tutiladi.
13. Uyingiz xolatini tekshirib uni mustaxkamlash yo'lini o'rganing.
14. Qishloqdagi axoli yashayotgan joylarda yoki ish joylarda xavfli jarayonlar ya'ni, sel kelishi, yer ko'chishi, suv bosishi mumkinligini baxolab, birgalikda xavfsiz joyga chiqish yo'llarini bilish shart. Chunki yer silkinishi natijasida, yer ko'chkisi, o'pirilish, siljish, tosh ko'chkisi, yerning yorilishi, tuproq qatlamlarining cho'kishi, tuproqning siqilib qolishi xollari sodir bo'ladi.

QATTIQ YER SILKINISHI DAVRIDA.

Yer silkinishi sodir bo'lganda, yerning yuza qismi uncha uzoq bo'lmagan vaqt oralig'ida tebranadi, eng ko'p silkinish davri bir necha sekunddan 2-3 minutgacha davom etadi. Bu tebranish insonga taxlikali qo'rquv keltiradi, lekin yer silkinishining to'xtashini kutish shart. Shuning uchun osayishtalik va xotirjamlikni saqlash juda muxim.

Yer silkinishi davrida xotirjamlik va aql bilan ish ko'rsangiz talofatsiz chiqishingizga ko'proq imkoniyat bo'ladi.

ZILZILA PAYTIDA XONANI ICHIDA:

1. Agar siz yer yoki binoning devorlarida yoriqlar paydo bo'lganligini sezib qolsangiz, asosan yuqoridan tushadigan jismlarga e'tibor berib, tezroq xarakat qiling.
2. Agar siz ko'p qavatli uyning birinchi qavatida yoki pishiq g'ishtli xamda paxsali shaxsiy uylarda yashasangiz yer qimiray boshlagandan 15-20 sekund ichida darhol uyning ichidan tashqariga chiqib keting va elektr tarmog'i, gaz trubalari va baland imoratlardan uzoqroqda – ochiq joyda turing.
3. Agar xonaning ichida qolsangiz oldindan ko'zlab qo'yilgan joyga turib oling. Mabodo yuqoridan suvoq parchalari, yoritkich asboblari, oyna siniqlari tushadigan bo'lsa, stol yoki krovatlar tagiga berkinib oling. Maktab o'quvchilari partalarning tagiga kirib olib, oynaga teskari o'girilib, bosh qismini va yuzlarini qo'li bilan berkitib

olishlari zarur.

4. Agar siz ko'p qavatli uylar va imoratlarning birinchi qavatidan yuqorida bo'lsangiz xech qachon lift va zinapoyalarga qarab chopmang, chunki yer qimirlash davrida ushbu qurilmalarning birinchi navbatda qulash xollari ko'p kuzatilgan.

Bunday xollarda uyning eshigini ochib tashlang va eshikning o'rniga turing. Eshik ochilmasa xavotir olmang. Bu xol imoratning qiyshayganidan bo'ladi.

5. Imoratning oynaband joylaridan uzoqroqda turishga xarakat qiling. Imoratning asosiy devori yonida turishga xarakat qiling.

6. Birinchi qavatdan yuqorida bo'lsangiz, oynali derazadan sakramang, bino buzilmasa ham o'zingiz lat yeyishingiz mumkin.

7. Sakrashga majbur bo'lgan xolda, oynani stul yoki yelkangiz bilan sindirib keyin sakrang.

8. Odamlar bilan gavjum joylarda (magazin, kinoteatr, o'quv muassasalari, shoxbekat) qo'rquvga berilmay, binoning asosiy devorlariga suyanib yoki osilib turgan buyumlardan, lustra, ventelyator, reklama taxtasidan uzoqroq turish kerak.

9. Yer silkinishlari oqibatida qishloq joylarida bir qavatda, yer ko'chmasa, sel bosishi, tog' toshlari tushishi mumkin. Shuning uchun tepalik ustiga yoki suv bosmaydigan balandroq joyga chiqib olishga xarakat qiling.

10. Molxonalar yonida turish mumkin emas, chunki qo'rqib ketgan xayvonlar tagida qolib ketishingiz mumkin.

Ko'chada:

1. Yuqori qavatli bino yo'lakchasida turgan bo'lsangiz ochiq joyga chiqishga xarakat qiling, chunki bino buzilsa, bo'lakchalari ustingizga tushishi mumkin. Elektr simlari o'tgan liniya tagida ham turmang, uzilib ketishi mumkin.

2. Bino yonida yugurmang va binoga kirmang. Bu xayotingiz uchun xavflidir, chunki buzilayotgan bino bo'lakchalari ustingizga tushishi mumkin.

3. Yer silkinayotgan vaqtda avtomabilda ketayotgan bo'lsangiz, ko'p qavatli imorat, elektr simi, tik qiyalik ostiga, daryo o'zani yonida to'xtamang.

Yer qimirlashidan so'ng:

Yer silkinishida to'xtagandan keyin, shikastlangan, lat yegan, devor ostida qolgan odamlarga yordam bering.

1. Yordamga muxtoj odamlarga birinchi tibbiy yordam ko'rsating. Shikastlanganlarni yoping'ich bilan o'rang va shifokorlarga murojaat qiling.

2. Kasallar, bolalar va qariyalar xavfsizligini ta'minlang, yer silkinishi natijasida ruhan shikastlanganlarga dalda bering.

3. Yengil buyular ostida qolganlarga iloji bo'lsa yordam bering, iloji bo'lmasa yordam kelguncha kuting.

4. Yong'in o'chog'ini topsangiz iloji boricha o'chirishga xarakat qiling.

5. Elektr simlarini tekshiring, agar uzilgan bo'lsa, elektr tarmog'ini o'chiring.

6. Xavfli tez yonuvchan suyuqliklar to'kilgan bo'lsa (benzin ximikatlari va boshqalar) buni tezda bartaraf qiling va bu xaqda boshqalarga xabar bering.

7. Agar sizning yordamingiz kerak bo'lmasa yer qimirlagan va vayron bo'lgan

joyga kirmang.

8. Telefonni keraksiz axborotlar uchun band qilib turmang, chunki telefon yordamga chaqirish, muxim xodisalar, yaradorlar va jinoyatchilik xaqida axborot berish uchun kerak bo'ladi.

Shuni esda tuting, telefon liniyasining band bo'lishi qutqaruv ishlarini foydasini kamaytiradi.

9. Yana yer qimirlashi mumkin degan xayolga bormang va mish-mishlarga ishonmang yoki gap tarqatmang. Ishonchli axborotlardan foydalaning.

10. Agar siz vayronagarchiliklar ostida qolsangiz, sharoitni to'g'ri baxolang. O'zingizgabirinchi tibbiy yordam ko'rsating, agar lozim bo'lsa qon oqishini to'xtating va jaroxatni bog'lang.

11. Oldingizda turgan odamga yordam ko'rsating, u o'zini tinchlantirib olsin. Vayronadan tashqarida qutqarish uchun yurgan odamlar bilan tovush va taqillatish yo'li bilan aloqa qiling. Kuchingizni tejang. Yodingizda tuting, albatta yordam keladi.

12. Yodingizda bo'lsin qayta silkinish xavfi, ya'ni yer silkinishining qaytish extimoli bo'ladi. Yer silkinishining qaytishi bir necha daqiqa yoki bir neche soatdan so'ng xam ertasi kuni xam sodir bo'lishi mumkin.

Yer yuzida sodir bo'lgan zilzilalar tarixi hamda boshqa tushunchalar.

Zilzilalar, asosan yer kurrasining uchta seysmik kamarida bo'lib turadi. Ular Tinch okeani, O'rta yer dengizi - Osiyo va O'rta Atlantika suvosti tog' tizmalari seysmik kamarlaridir.

Tinch okeani - seysmik kamariga taxminan 80% zilzilalar to'g'ri keladi. Ularning epitsentrlari kontinent va okean yer qobiqlari tutashgan mintaqalarda joylashgan.

O'rtaer dengiz - Osiyo - seysmik kamariga taxminan 15 % zilzilalar sodir bo'ladi. U g'arbda Atlantika okeani qirg'oqlaridan boshlanib, Urtaer dengizi, Kavkaz, Markaziy Osiyo mintaqalari orqali janubiy-sharq yo'nalishida davom etib, Tinch okeani bilan tutashadi.

Tarixiy va yaqin o'tmishdagi kuchli zilzilalar davrida bu ofatlarning ko'pi ro'y bergan va kuzatilgan. Masalan, 1556 yil Xitoydagi Shansi zilzilasidan 830.000, 1737 yil Xindistondagi Kalkuttada 300.000, 1923 yil Yaponiyadagi Kantoda 142.807, 1970 yil Peruda 70.000, 1976 yil Xitoydagi Tyanshanda 240.000 kishi xayotdan ko'z yumgan. Zilzila daxshatlarini tasavvur qilish uchun Yaqindagina Yaponiyada, Xitoyda, Xindistonda, Eronda, Turkiyada bo'lib o'tgan zilzilalarni yoki 1948 yilgi Ashxobod va 1949 yildagi Xayit zilzilalarini eslab o'tish kifoya. Ularda yuz minglab odamlarning xalok bo'lganliklari sir emas.

Vatanimiz fuqarolari yurtimizda tez-tez zilzilalar sodir bo'lib turishini, ba'zan ular nixoyatda daxshatli ekanini biladi va tasavvur qiladi.

O'zbekiston 7, 8, 9 va undan ortiq balli zilzilalar bo'lib turadigan seysmik jixatdar aktiv zonalardan xisoblanadi.

Tarixiy ma'lumotlarga qaraganda 838-839 yillarda Farg'onada, 942 yilda Buxorada, 1208-1209 yillarda Urganchda, 1490 yilda Samarqandda, 1494 yilda Namanganda, 1620 yilda Axsikentda, 1821-1822 yillarda Buxoro va Samarqand

yaqinida talofatli kuchli zilzilalar bo'lib o'tgan.

Ulardan ayrimlari xaqida to'xtalib o'tamiz:

Axsikent zilzilasi. 1620 yilda Namangandan 5-15 km janubi-g'arbda sodir bo'lgan kuchli zilzila. U qadimiy shaxar Axsikentni to'la vayronaga aylantirdi. Shaxar keyin qayta tiklanmagan. Xozirda ayrim arxeologik qoldiqlar saqlangan, xolos.

Andijon zilzilasi. Andijonda 1902 yili sodir bo'lgan 9-10 ballik zilzila xalqimiz boshiga tushgan eng qora kunlar va ayanchli voqealarga sabab bo'ldi. Zilzila tufayli o'sha paytda shahardan nishona qolmagan. Ming-minglab odamlarning yostig'ini quritgan.

SUV TOSHQINI VA UNING TALAFOTLARI

Suv toshqini ham tabiiy ofatlar ichida eng xavflisi hisoblanadi. Suv toshqini deb daryo, ko'l, hovuzlardagi suv sathining keskin ko'tarilishi natijasida ma'lum maydonlardagi yerlarni suv tagida qolishiga aytiladi.

Suv toshqiniga turli omillar sababchi bo'ladi:

Kuchli yomg'ir yog'ish oqibatida (jala, sel quyishi);

Qorlarning surunkali erishi natijasida;

Kuchli shamol esishi natijasida;

Oqar daryolardagi muzliklarning yig'ilib, sun'iy to'g'on hosil qilishi;

Tog' jinslarining nurashi, surilishi yoki boshqa sabablar bilan suv saqlash omborlarining buzilishi oqibatida.

Kuchli yomg'ir yog'ishi natijasida suvlarning sathi keskin ko'tarilib, daryo, ko'llarga sig'maydi va natijada ekin maydonlarini, turar-joy massivlarini, yo'llarni suv bosadi va ularni izdan chiqaradi. Bulardan tashqari, elektr energiya, aloqa uzatgichlar, melliorativ tizimlar ishdan chiqadi, chorva mollari, qishloq xo'jaligi ekinlari yo'q bo'lib ketadi, xom ashyolar, yoqilg'i, oziq-ovqatlar, mineral o'g'itlar va boshqalar yaroqsiz holga keladi yoki yo'q bo'lib ketadi. Shular natijasida juda kata moddiy zarar ko'rilib, insonlar o'limi sodir bo'lishi mumkin.

Suv saqlaydigan omborlarni har xil falokatlardan asrash uchun hamma turdagi omillar, ehtiyot choralari ko'rib qo'yilgan bo'lishi zarur. Jumladan, birlamchi va ikkilamchi saqlovchi platina qurish, har bir boshqa saqlovchi omillar belgilanishi zarur.

Suv toshqini paytida ma'lum qism odamlar (qutqaruvchilar) shu falokat hududida qolib, imkoni boricha qilinadigan ishlarni bajarishlari zarur. Ammo ular suv ostida qolgan ovqatlarni yemasliklari, suv ichmasliklari kerak. Yashash joylarida elektr jihozlardan foydalanmasliklari lozim, chunki elektr ta'minot simlari qo'llanganda kichik qarshilik bo'lishi natijasida yong'inlar chiqishiga olib keladi. Suv toshqini o'tib bo'lgandan keyin fuqarolar o'zlarining doimiy yashash joylariga qaytib kelib, toshqin oqibatlarini bartaraf etish chora-tadbirlarini boshlab yuboradilar. Ular quyidagilardan iborat:

suv bosgan joylardagi suvni chiqarib tashlash va quritish;

uylarning yerto'lalaridagi suvlarni chiqarib tashlash;

toshqin natijasida buzilgan joylarni: maishiy-energetik tarmoklarni, yo'llarni, ko'priklarni va boshqalarni qayta tiklash;

qayta tiklab bo'lmaydigan inshootlarni, uylarni yiqitish va ularni tozalash; ekinzorlarni suvdan tozalash.

Tog' jinslari qatlamlarini qiya sath bo'ylab o'z og'irligi, gidrodinamik, gidrostatik, seysmik kuchlar ta'sirida surilishiga yer surilishi deyiladi.

Yer surilishining vujudga kelish qonuniyatlarini, ularning dinamikasini o'rganish katta ahamiyatga ega. Bu – qurilish ishlarini olib borish sharoitini aniqlashda, xalq xo'jaligi inshootlarini va inson hayotini saqlashda muhim omil hisoblanadi. Yer surilishi oqibatida xalq xo'jaligi katta zarar ko'radi, ba'zi yirik inshootlar, yo'llar bir necha yuz metrga surib tashlanadi, katta-katta ekin maydonlari foydalanishga butunlay yaroqsiz bo'lib qoladi, butun-butun qishloqlar, shaharlar vayron bo'ladi, minglab kishilar boshpanasiz qoladi, halokatga uchraydi.

Yer surilishi – tog' jinsining surilish tezligi hamda suriluvchi tog' jinsini miqyos darajasiga ko'ra turli xilda bo'lishi mumkin.

Yer surilishining yuzaga kelishiga quyidagi omillarga sabab bo'ladi:

Tog' yon bag'ri etaklarining tabiiy holatini oqar suvlar, suv omborlari ta'sirida buzilishi hamda rejasiz olib borilgan qurilish ishlari;

Qiya sathlarda tarqalgan tog' jismlarining xossa va xususiyatlari, mustahkamlik darajasining o'zgarishi, sug'orish ishlari, qor-yomg'ir suvlari ta'sirida namligining oshishi;

Tog' jismlariga yer osti suvlari (gidrodinamik) va yer ustki suvlari (gidrostatik) bosimining ta'siri;

Tog' jinsi zichligini va mustahkamligining, burg'ilash hamda tog'-kovlash ishlari natijasida buzilishi;

Tektonik va seysmik kuchlar ta'siri. Surilishlarni yuzaga kelishida hududning iklim hamda gidrogeologik sharoitlari va boshqalar.

Yer surilishida uchta bosqich kuzatiladi:

1-bosqich. Surilishning tayyorlanish bosqichi. Bu bosqichda qiya sathlardagi tog' jinsi turg'unligi susayadi, yer sathida turli kenglikdagi yoriklar paydo bo'ladi.

2-bosqich. Tog' jinslarining katta tezlik bilan yoki sekin asta surilishi kuzatiladi. Surilish tezligi yuqorida qayd etilgan omillarning ta'sir darajasiga bog'liq bo'ladi.

3-bosqich. Surilishning so'nish bosqichi. Bunda tog' jinslari surilishdan to'xtaydi.

Yer surilishlarining oldini olish usullari:

Yer surilishlarining oldini olish usullariga:

qiya sathlarda qurilish va ular bilan bog'liq bo'lgan kavlash ishlarini olib bormaslik;

qiya sathlarda tog' jinsi to'kilmalarining yig'ilishiga yo'l qo'ymaslik;

temir yo'l, transport vositalari harakat tezligini belgilangandan oshishini taqiqlash;

qiya sathlardagi o'simlik dunyosini muhofaza qilish;

qiya sathlarda sug'orish, shudgorlash ishlarini olib bormaslik kabi ishlar kiradi.

Yer surilishi ofatidan saqlanishning ishonchli omili, bu xalqni o'z vaqtida ogoh

etish hisoblanadi. Hozirgi kunda ham respublikamizning ba'zi viloyatlarida yer surilishi ehtimoli bor hududlar mavjud bo'lib, hukumatimiz va fuqaro muhofazasining mutasaddi xodimlari tomonidan doimiy ravishda xavfli mintaqada yashovchi fuqarolar ogohlantirib borilmoqda.

KUCHLI SHAMOL, QURG'OQCHILIK VA UNING OQIBATLARI

Kuchli shamol ham insonlar hayotiga va xalq xo'jaligiga jiddiy zarar yetkazadigan ofatdir. Bu ofat uzoq davom etuvchi va buzish kuchiga ega. Bu ofatning tezligi 30-90 m/s.ga yetadi. O'rta Osiyo mintaqalarida shamolning kuchi 40-60 m/s.ga, O'zbekistonning Xovos, Bekobod tumanlarida esa 50-60 m/s.ni tashkil etadi. Kuchli shamolning paydo bo'lishi, ya'ni atmosferada muvozanatning buzilishi natijasida havo oqimi juda katta tezlikda harakatlanib, ba'zi joylarda, u o'rama (voronka) harakatga aylanib ketad.

Bunday ofat oqibatida odamlarning halok bo'lishi, inshootlarning buzilishi, ekinzorlarning payhon etilishi, elektr-telefon tarmoqlarining izdan chiqishi va boshqa oqibatlarga olib keladi. Kuchli shamol esganda odamlar, uy hayvonlari yuradigan yo'llardan adashadilar, simyog'ochlar, daraxtlar ag'anaydi, uylarning tomlari buzilishi natijasida odamlar turli darajada jarohat oladilar.

Shuning uchun bunday favqulodda holatda odamlar yengil, baland qurilgan imoratlardan, elektr tarmoqlari osilgan simyog'ochlardan, ko'priklardan uzoqroq joylarda saqlanishlari lozim. Bu ofatdan eng ishonchli saqlovchi omil – bu himoya inshootlari (metro, yer osti yo'laklari, uylarning yerto'lalari va boshqalar) hisoblanadi.

Bu ofatdan saqlanishning yana bir omili-ofat haqida odamlarni o'z vaqtida ogoh qilishdir.

Kuchli shamol ofati yuz berganda fuqaro muhofazasi tizimlari davlat organlari xodimlari boshchiligida qutqaruv va buzilgan joylarda tiklash ishlarini bajaradi, jabr ko'rganlarga birlamchi tibbiy yordam ko'rsatadi.

Qurg'oqchilik ofati ham O'zbekistonga xos bo'lib, ilgari bunga deyarli e'tibor berilmagan. Lekin keyingi yillarda ekologiyaning haddan tashqari buzilishi, suv resurslaridan noto'g'ri foydalanish va boshqa sabablar oqibatiga bizning mintaqada ham bunday ofat aynan hozirgi paytda kuzatilmoqda.

Qurg'oqchilikda odamlarning o'limi, daraxtlarning, ekinzorlarning qurishi, kuchli yong'inlarning chiqishi va turli xil kasalliklarning tarqalishiga imkoniyat yaratiladi.

Sel, uning xususiyatlari va talafotlari.

Tog' hududlarida kuchli yomg'irlarning yog'ishi, muzlik va qorlarning tez erishi natijasida hosil bo'lgan daryo toshqinlarini, tog' yon bag'rilarida nuragan tog' jinsi bo'laklarini suv oqimi bilan tekislikka tomon oqizib tushirilish sel hodisasi deb yuritiladi.

Sel - arabcha so'z bo'lib, tog'lik hududlardagi suv toshqini ma'nosini anglatadi. Sel oqimlari o'zi bilan olib keladigan qattiq zarrachalarining o'lchamiga qarab uch guruhga bo'linadi:

suv-toshli sellar, loyqa sellar, aralash sellar.

Sel hodisasini bartaraf qilish maqsadida olib boriladigan ishlar ilmiy-amaliy

xulosalarga, chora-tadbirlarga asoslangan bo'lmog'i kerak.

Bular quyidagilardan iborat:

- sel bo'lishi mumkin bo'lgan daryolarning suv yig'ish maydonlarida doimiy kuzatish ishlarini olib borish. Bunda suv yig'ish maydonida bo'shoqtog' jinslari yig'ilishining oldini olish, oqar suvlar oqimiga to'sqinlik qiluvchi tabiiy va sun'iy to'siqlardan tozalash ishlari;

- sel oqimi yuzaga kelishi mumkin bo'lgan daryolarning suv yig'ish maydonlarini muhofaza qilish, ya'ni bu maydonlarda o'simlik dunyosini saklash, daraxtlar va butalarni kesish, maydonlarda shudgorlash va sug'orish ishlarini olib borishni chegaralash;

- o'rmon xo'jaliklarini rivojlantirish, ya'ni tog' yon-bag'irlarida butalar va daraxtlarning ekilishini yo'lga qo'yish talab etiladi, chunki bu o'simliklar tog' jinslari qatlamlarini mustahkam ushlab turadi, qor erishini sekinlashtiradi, yer yuzasini yuvilishdan saqlaydi;

- tog'li hududlardagi daryolarning o'zanida suv oqimini boshqaruvchi inshootlar qurish, tabiiy, sun'iy to'g'onlarni tartibga solish, temir yo'l, avtomobil yo'llari ostiga sel o'tkazuvchi katta diametrlilik quvurlar yotqizish ishlari.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkin, jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, tabiiy va texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ular sodir bo'lganda oqibatlarini tezkor bartaraf etish, murakkab sharoitlarda muvofiq qaror qabul qila olish va harakatlanishning uddasidan chiqish aholi va hududni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilishning birmuncha samarali chora-tadbirlari bo'lib hisoblanadi.

Shu munosabat bilan aholining barcha qatlamlarini tabiiy va texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlar sharoitida o'z xavfsizligini ta'minlashga o'rgatish va tayyorlash muammosining dolzarbligi shubhasizdir.

Respublikamizning barcha viloyatlarida Favqulodda vaziyatlar boshqarmalarining Hayot faoliyati xavfsizligi o'quv markazlari o'qituvchilari tomonidan aholini va rahbar xodimlarni favqulodda vaziyatlarda to'g'ri xarakat qilishga o'qitish va o'rgatish samarali tashkil etilganligi maqsadga muvofiqdir. Lekin Qoraqalpoqiston Respublikasi, Qashqadaryo, Surxandaryo, Xorazm, Jizzax va Samarqand viloyatlarining hududlarini kattaligini inobatga olgan xolda o'quv markazlarini hududlarga ajratgan xolda kengaytish maqsadga muvofiq bo'lar edi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi favqulodda vaziyatlar vazirligini tashkil etish to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni 4 mart 1996 y.

4. O'zbekiston Respublikasi favqulodda vaziyatlar vazirligi faoliyatini tashkil etish masalalari to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori. №143, 11-aprel 1996 y. Tosh. 25-b.

4. Texnogen, tabiiy va ekologik tusdagi favqulodda vaziyatlarning tasnifi to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori № 455, 27

oktabr, 1998 y. 6-b.

5. Aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen hususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi qonuni. Tosh. «Sharq» 1999 y. 31-b.

6. Fuqaro muhofazasi to'g'risida O'zbekiston Respublikasi qonuni Toshkent. 26 may 2000 y.

7. B. E. Kosimov. Osoyishta damlar qadri. «Adolat» gazetasi. 12 may 2000 y.

8. Gidrotexnik inshootlarning xavfsizligi to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi qonuni. Toshkent. 20 avgust 1999y.

9. O'zbekiston Respublikasining "Gidrotexnika inshootlarining xavfsizligi to'g'risida" gi qonuni.

10. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 171-sonli qarori.

11. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 455-sonli qarori.

12. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 754-sonli qarori.

13. I.I.Mamatov Harbiy toksikologiya va tibbiy muhofaza. Toshkent 1977 y.

14. A.V.Zyuzin, V.I.Semenov "Zashita proizvodstvennogo personala i naseleniya ot SDYAV na ximicheski opasnix ob'ektax", Medinor, Moskva, 1994 g.